

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



AHOLI GEOGRAFIYASI VA DEMOGRAFIYA ASOSLARI
O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	100000 – Ta'lim
Ta'lim sohasi:	110000 – Ta'lim
Ta'lim yo'nalishi:	60111000 – Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari

Chirchiq – 2023

aholini hisobga olish zarurligi.

Aholi soni har qanday hudud ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishning bosh omili ekanligi. Shu sababli aholi sonini hisobga olish zarurligi va uning tarixiyligi. Aholi ro'yxatlari, uning tarixiy ijtimoiy ahamiyatlari. Aholi ro'yxati va aholini joriy hisobga olishning farqi. Aholi soni va dinamikasi. Aholi dinamikasi haqida tushuncha. Aholi dinamikasining davriy va hududiy tavsifi va ularning xususiyatlari. XX asrning 2-chi yarmida jahon aholisi dinamikasi. "Demografik portlash" va u haqida tushuncha. Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda, MDH va O'zbekistonda aholi dinamikasi o'rnatidagi tafovutlar, ularning bozor iqtisodiyotiga o'tish davriga xos xususiyatlari. Aholini son jihatidan o'zgarishiga olib keladigan demografik (tabiiy) va ijtimoiy (migratsiya) harakatlari. Ularning aholini takror barpo qilinishi va dinamikasini belgilashda asosiy jarayon ekanligi.

3-mavzu: Aholining tabiiy harakati

Aholining tabiiy harakati haqida tushuncha, bu jarayonda tug'ilish va o'lim hodisalari. Tug'ilish va o'limning ob'ektiv va biologik jarayon ekanligi, ular o'rnatidagi qoldiqning aholi sof tabiiy ko'payishidan iborat ekanligi. Tug'ilish, o'lim va tabiiy ko'payish ko'rsatkichlarini aniq hisobga olishning zarurligi. Ularning koeffitsientlari. "Bolalar o'limi", "O'racha umr ko'rish" tushunchalari. Tug'ilish, o'lim va tabiiy ko'payish holatiga tabiiy ta'sir etadigan omillar. Iqtisodiy, sotsial, milliy etnik, diniy kabi omillarning o'zaro aloqadorligi.

Tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlari bilan bog'liq bo'lgan aholini takror barpo qilinishi tiplari, ularning hududiy, mintaqaviy va davlatlararo ko'rsatkichlari. Aholining takror barpo etilishi ko'rsatkichlarida vaqt, davr va hudud ko'rsatkichlari. "Demografik holat" tushunchasi.

4-mavzu: Aholining migratsion harakatlari

Aholining mexanik (migratsiya) harakati, u haqidagi tushuncha, aholi migratsiyasining tabiiy va tarixiy ob'ektiv jarayon ekanligi. Aholi migratsion harakatining sabab va oqibatlari. Aholi migratsiyasiga ta'sir etuvchi omillar. Migratsiya ko'rsatkichlarini hisobga olish, u bilan bog'liq tushunchalar: migratsiya darajasi, migratsiya koeffitsienti, migratsiya balansi va sal'dosi. Aholi migratsiyasining tiplari va turlari. Tashqi va ichki aholi migratsiyasi, ularning tarixiy davrlar davomidagi asosiy yo'nalishlari va hajmi. Dunyo aholisi migratsiyasi. Ularning asosiy geografik xususiyatlari.

5-mavzu: Aholining demografik tarkibi

Aholining tarkibi haqida tushuncha, uning biologik, tarixiy, ijtimoiy ob'ektivligi. Aholi demografik va ijtimoiy (milliy-etnik, diniy) tarkiblari. Aholi demografik tarkibi uning yoshi va jinsiga bog'liq nisbatlar, ularning farqlari va ularning biologik jihatdan ob'ektivligi, aholining jinsi va yoshiga nisbatan o'rganilishining muhim ilmiy va amaliy ahamiyati. Aholining yosh tarkibi xususiyatlari. Uning aholi o'rnatidagi tug'ilishi va o'lim ko'rsatkichlari, urush va tinchlik, ochlik va farovonlik kabi omillarga bevosita va bilvosita bog'liqligini

Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	ECTS - Kreditlar		
AGDAM204	2024-2025	3	4		
Fan/modul turi	Ta'lim tili		Haftadagi dars soatlari		
Majburiy	O'zbek		4		
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
	Aholi geografiyasi va demografiya asoslari	60	60	120	

1. Fanning mazmuni.

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda atroflicha jamiyat ijtimoiy hayotining asosiy sub'ekti xisoblangan aholining Jahon va uning ayrim mamlakatlari, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi misolida, soni (dinamikasi) va takror barpo qilinish qonuniyatlari, omillari, aholining tabiiy va migratsion harakatlari, tarkibiy ko'rinishlari, mehnat resurslari va ularidan foydalanish darajasi, aholining hududiy joylashuvi, aholi manzilgohlarining shakllari va rivojlanishining geografik xususiyatlari bilan tanishtiradi.

Fanning oldiga qo'ygan vazifalari - talabalarga aholi geografiyasi va demografiya asoslari fanining asosiy mazmuni, uning asosiy tushuncha va qonuniyatlari, aholining miqdoriy va sifatiy rivojlanish xususiyatlari, uning tarkibiy jihatlari, hududiy joylashuvi va uning asosiy ko'rinishlarini tahlil qilish asosida xulosalar chiqarishdan iborat.

II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu: Aholi geografiyasi va demografiya asoslari fanining predmeti, nazariy, ilmiy-amaliy asoslari va tushunchalari.

Aholi geografiyasi va demografiya asoslarining predmeti mazmuni, tarixi va vazifalari. Aholi geografiyasi va demografiyaning asosiy geografiya fanlari tizimida o'rni, aloqador fanlar bilan bog'liqligi. Fanning asosiy mazmuni. Jamiyatning birinchi ishlab chiqarish kuchi bo'lgan aholi, ishchilarning ijtimoiy hayotidagi o'rni, uning o'sishi va hududlararo joylashishi xususiyatlarini o'rganish ekanligi.

Fanning shakllanishi va rivojlanishi bosqichlari, uning bozor munosabatlari sharoitidagi asosiy vazifalari, tadqiqot usullari. Aholi rivojlanishi va uning demografik jarayonlari ko'lamiga tabiiy, iqtisodiy, siyosiy-ijtimoiy va ilmiy-texnik omillarning ta'siri. Aholining demografik va sotsial rivojlanishining asosiy qonunlari. Aholi joylashuvini hududiy tashkil qilish va boshqarishga aloqador ijtimoiy qonunlar, tamoyillar va omillar ularning bozor iqtisodiyotiga o'tish davridagi xarakteri.

2-mavzu: Aholi soni va dinamikasi

Aholining soni, dinamikasi, uning takror barpo qilinishi xususiyatlari,

hududiy farqlanishi. Aholi yosh tarkibini o'rganish va hisobga olish ishini ilmiy va amaliy ahamiyati. Aholini yoshiga ko'ra guruhlanishi. Aholini yosh va jinsiy piramidasi. Aholining 1. yosh (1-14 yosh). 2. iqtisodiy faol (15-59 yosh). 3. nafaqa (60 yosh va undan katta) yoshlari o'rtasida guruhlanishi va ular nisbatining asosan iqtisodiy-ijtimoiy holatiga ko'ra hududlar va mamlakatlararo turlichaligi, bu ko'rsatkichlarni har xil mamlakatlar misolida taqqoslash. Aholining yosh tarkibi bilan bog'liq bo'lgan geografik va demografik tushunchalar. Aholining jinsiy tarkibi va xususiyatlari. Uning biologik sotsial, tinchlik, diniy, an'ana, psixologik kabi omillarga bevosita bog'liqligi. Aholi jinsiy ko'rsatkichlarining har xil mamlakatlar va hududlararo tafovutlanishi. Aholi jinsiy tarkibini o'rganish va aniq hisobga olishning ahamiyati. Aholining yosh va jinsiy tarkibi bilan nikoh va oilaning biologik va sotsial tarixiy ob'ektiv bog'liqligi. Nikoh va oila va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati. Ular holati va ko'rsatkichlarining asosiy omillari. Iqtisodiy rivojlanish darajasi, ijtimoiy-psixologik, milliy-etnik, diniy holatlar turlicha bo'lgan hudud va mamlakatlarda nikoh va oila ko'rsatkichlarining tafovutlari. Nikoh va oilaning rivojlanishiga yosh mustaqil O'zbekistonda alohida e'tibor berilishi.

6-mavzu: Aholining irqiy tarkibi

Aholining biologik shakllariga ko'ra irqiy guruhlanishi: yevropoid, mongoloid, negroid, avstroloid irqi va ularning geografiyasi. Irqlararo munosabatlar. "Irqiylar kamitishlar", "Apartheid", "O'tish irqi", "Aralash irqi" kabi tushunchalar. Jahon aholisi irqiy tarkibidagi mintaqaviy tafovutlar.

7-mavzu: Aholining milliy tarkibi

Ularning biologik, tabiiy, ijtimoiy omillarga bog'liq bo'lganligi. Aholining milliy tarkibi, turmush tarzi, psixologik-an'anaviy xususiyatlarini o'rganish. Aholining milliy tarkibi bilan bog'liq tushunchalar: etnos, urug', qabila, elat, millat, xalq kabilar. Etno-konfessional tarkibning shakllanishi, turlari hamda ular orasidagi o'xshashliklar va tafovutlar.

Xalqlarni etnik jihatlariga ko'ra klassifikatsiyalashda til belgilarining ahamiyati. Dunyo xalqlarining tiliga ko'ra eng yirik oilalar va ularni tashkil etuvchi asosiy guruhlar. Eng yirik xalqlar va millatlar geografiyasi. Monoetnik va polietnik davlatlar. Millatlar va xalqlararo munosabatlarining siyosiy-iqtisodiy oqibatlar. Bu munosabatlarni me'yoriylash va rivojlantirishda jahon siyosiy institutlari. O'zbekiston Respublikasining ko'p millatli davlatlardan biri ekanligi. Unda milliy mustaqillik yillarida millatlararo totuvlik va barqarorlikni rivojlantirishda qo'lga kiritilgan yutuqlar.

8-mavzu: Dinlar va diniy tarkib haqida tushuncha

Aholi diniy tarkibining xilma-xilligi, uning sabablari. Dinlarning tarixiy-ijtimoiy kelib chiqishi. Dinlar kelib chiqishining tarixiy, psixologik, siyosiy va geografik negizlari. Dunyo xalqlari sivilizatsiyasi rivojlanishida dinlarning o'rnini. Dinlar klassifikatsiyasi. Sodda (primitiv), mahalliy (milliy) va dunyoviy dinlar va

ularning geografiyasi. Dunyoviy dinlar: xristian, islom va buddizmni kelib chiqishi, hududiy tarqalishi, ularning dunyo xalqlari ma'naviy-madaniy hayotida tutgan o'rnini.

Hozirgi davr dunyo ijtimoiy hayotida dinlarning roli. Dunyoviy diniy institutlar uyushmalarining xalqlar va davlatlararo yaxshi munosabatlarni rivojlantirishdagi ijobiy roli. Shu bilan birga keyingi yillarda diniy ekstremizm, islom fundamentalizmi kabi harakatlar xuruji, unga qarshi kurashning tobora ommaviylashib borishi.

O'zbekistonda vijdon va diniy erkinlikning mustaxkamlanib borishi.

9-mavzu: Aholining ijtimoiy-sotsial tarkibi

Ijtimoiy hayot sharoitlarining xilma-xilligi. Aholining rivojlanishida ishlab chiqarish tarmoqlari, kasb ko'rsatkichlarining hududlar, mamlakatlararo turlichaligi, buning sababi va omillari. Sotsial tarkibi, uning ko'rsatkichlari turlicha bo'lgan davlatlar bilan O'zbekistonni taqqoslash va tahlil qilish. Bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan O'zbekistonda aholining sotsial-kasb rivojlantirishiga katta e'tibor berilayotgani.

10-mavzu: Mehnat resurslari va ulardan foydalanish

Mehnat resurslari haqida tushuncha. Ularning alohida ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya ekanligi. Mehnat resurslarining shakllanishi va takror barpo qilinishining demografik asoslari. Mehnat resurslarining shakllanishi, ularning hududlar, davlatlar va mintaqalararo joylashishi. Turli mamlakatlarda mehnat resurslaridan foydalanish xususiyatlari. Erkaklar va ayollar, malakali va malakasiz mehnat resurslari, yoshlar va keksalar mehnatidan foydalanish. Aholini mehnatga joylashtirish xizmati, mehnat birjalarining mehnat resurslaridan samarali foydalanishdagi o'rnini. Mehnat resurslarini o'qitish, mehnatga tayyorlash tizimini rivojlantirishning roli.

O'zbekistonda mehnat resurslarining salmog'i, dinamikasi, tarkibi, ulardan foydalanishning hozirgi ahvoli, xususiyatlari va muammolari. Respublikada bozor munosabatlari rivojlana borishning mehnat resurslaridan foydalanishga ta'siri.

11-mavzu: Aholining hududiy joylashuvi

Aholi hududiy joylashuvining tarixiy, geografik asoslari, unda tabiiy va iqtisodiy geografik omillarining o'rnini. Aholining hududiy joylashuvida inson omilining tarixiy davrlardagi passivlik holidan keyingi davrlarda faollik darajasiga o'tish.

Aholi hududiy joylashuviga ko'ra gorizontal va vertikal ko'rsatkichlari. Aholi hududiy joylashuvining miqdor ko'rsatkichlari. Aholining o'rtacha zichligi, geografiyasi. Yer sharida aholining notekis joylashganligi, sabablari. Aholi zich yashaydigan hududlar geografiyasi, ularning miqdor ko'rsatkichlari va omillari. Aholi siyrak joylashgan hududlar geografiyasi, uning tabiiy va iqtisodiy geografik sabablari. Hozirgi zamonda aholi hududiy joylashuvida fan-texnika taraqqiyotining roli. Aholi hududiy joylashuvi bilan bog'liq ekologik muammolar.

O'zbekiston aholisi hududiy joylashuvining asosiy ko'rsatkichlari va xususiyatlari.

Aholi joylashuvining geografik tizimlari. Aholining hududiy joylashuvi va aholi manzilgohlari. Aholining shahar va qishloqlararo taqsimlanishi, ular nisbatining tarixiy davr davomida o'zgarib borishi, dinamikasi va xarakteri.

Aholi manzilgohlarning tashkil topishi va rivojlanishining geografik omillari. Bunda tabiiy va iqtisodiy geografik sharoit hamda geografik o'rnining ahamiyati. Aholi joylashuvi hududiy tizimining rivojlanish qonuniyatlari va tamoyillari. Aholi manzilgohlari va ularning shakllari. Ularning asosiy tiplari.

12-mavzu: Shahar aholi manzilgohlari

Shaharlar tizimining rivojlanishi va urbanizatsiya jarayoni. Shaharlarning jamiyat hayotida o'ziga xos tarixiy-ijtimoiy iqtisodiy kategoriya ekanligi. Shaharlarning tarixiy davrlar davomida aholi hududiy joylanish tizimining asosiy tayanch shakli bo'lib kelganligi. Shaharlar va shahar tizimi haqida tushunchalar. Shaharlar maqomining davlatlar o'rtasida turlichaligi.

Shahar tizimi rivojlanishining asosiy tarixiy bosqichlari va ularning ob'ektivligi. Shaharlar rivojlanishining hozirgi bosqichi va urbanizatsiya jarayoni. Urbanizatsiya jarayoni haqida tushuncha. Urbanizatsiyaning mohiyati va xususiyatlari. Jaxon urbanizatsiya jarayonining regional farqlari va geografiyasi.

Shaharlar geografiyasi bilan bog'liq "urbanizatsiya", "suburbanizatsiya", "aglomeratsiya", "megopolis" kabi tushunchalar. Jahondagi eng yirik shaharlar aglomeratsiyalari, megopolislari, ular bilan bog'liq ijtimoiy, ekologik va boshqa muammolar.

Qishloqlar aholi manzilgohlarning eng qadimiy va eng ommaviy keng tarqalgan shakli ekanligi. Qishloq aholi punktlarining kattaligiga ko'ra shakllari, tiplari, funksiyasiga ko'ra o'ta xilma-xilligi. Aholining hududiy joylashishi va qishloq aholi punktlari xilma-xilligining tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy geografik omillari.

Qishloqlar hududiy joylashuvining kompakt va dispers (tarqoq) tiplari, ularning shakllanishi va rivojlanishining tarixiy-ijtimoiy geografik omillari. Ularning qishloqlar kattaligi, shakli, funksional ishlab chiqarish tiplariga ta'siri.

Dunyo qishloq aholisi va qishloq aholisi punktlari soni va salmog'ining dinamikasi. Ularning turli geografik zonalar (gorizontal va vertikal) bo'ylab rivojlanish imkoniyatlari. O'zbekiston qishloq aholisi va aholi punktlarining xususiy joylashishi shakllari, tiplarining o'ziga xos xususiyatlari, rivojlanish omillari. Ularning milliylik qiyofasi. Bozor munosabatlari shakllanayotgan hozirgi davrda O'zbekiston qishloqlarining rivojlanish muammolari va istiqbollari.

13-mavzu: Qishloq aholi manzilgohlari.

Qishloqlar aholi manzilgohlarning eng qadimiy va eng ommaviy keng tarqalgan shakli ekanligi. Qishloq aholi punktlarining kattaligiga ko'ra shakllari, tiplari, funksiyasiga ko'ra o'ta xilma-xilligi. Aholining hududiy joylashishi va

qishloq aholi punktlari xilma-xilligining tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy geografik omillari.

Qishloqlar hududiy joylashuvining kompakt va dispers (tarqoq) tiplari, ularning shakllanishi va rivojlanishining tarixiy-ijtimoiy geografik omillari. Ularning qishloqlar kattaligi, shakli, funksional ishlab chiqarish tiplariga ta'siri.

Dunyo qishloq aholisi va qishloq aholisi punktlari soni va salmog'ining dinamikasi. Ularning turli geografik zonalar (gorizontal va vertikal) bo'ylab rivojlanish imkoniyatlari. O'zbekiston qishloq aholisi va aholi punktlarining xususiy joylashishi shakllari, tiplarining o'ziga xos xususiyatlari, rivojlanish omillari. Ularning milliylik qiyofasi. Bozor munosabatlari shakllanayotgan hozirgi davrda O'zbekiston qishloqlarining rivojlanish muammolari va istiqbollari.

14-mavzu: Aholi rivojlanishining qonuniyatlari, konsepsiyalari, ularni bashoratlash.

Aholini ob'ektiv ijtimoiy qonun va qonuniyatlar asosida rivojlanib borishi. Har bir tarixiy-ijtimoiy formatsiyalar davrida aholi rivojlanishini boshqaradigan o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy qonun va qonuniyatlarining harakat qilishi. Jamiyatning rivojlanish bosqichlarida, ularning har biriga xos ijtimoiy ishlab chiqarish munosabatlari. O'z navbatida ularning turli davrlarda va mamlakatlarda aholining tabiiy va migratsion harakatini nazorat qilish, tartibga solishni ko'zda tutadigan "demografik siyosat" yurgizishni taqozo etishi.

Turli davrlarda maydonga chiqqan demografik konsepsiyalarning aholini alohida ijtimoiy siyosiy tabaqa (sinflari) manfaatlari yo'lida yaratilgan ekanligi. Eng dastlabki demografik konsepsiyalari va nazariyalari (turli dinlar mazmunida aks etgan) va ularning mohiyati.

15-mavzu: Aholi siyosati.

Hozirgi zamon jahon demografik siyosati va konsepsiya-nazariyalari ishlab chiqayotgan dunyoviy demografik institutlar. (BMT, uning aholishunoslikka oid bo'linmalari, jahon demografik kongressi va boshqalar).

Demografik ilmiy bashoratlash (prognozlash), ularning dunyoviy va regional harakati. Aholi o'ziga xos ilmiy bashoratlashning demografik asoslari, usullari, ularning aniqlik darajasi va amaliy ahamiyati.

O'zbekistonda aholining o'sishi, farovonligini ta'minlash va salomatligini muhofaza etish yo'lida olib borilayotgan chora-tadbirlar.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.

1. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari fanining predmeti, nazariy, ilmiy-amaliy asoslari va tushunchalari.
2. Aholi soni va dinamikasi.

3. Aholining demo-ijtimoiy harakatlari.	
4. Aholining migratsion harakatlari.	
5. Aholining demografik tarkibi.	
6. Aholining irqiy tarkibi.	
7. Aholining milliy tarkibi.	
8. Dinlar va diniy tarkib haqida tushuncha.	
9. Aholining ijtimoiy tarkibi.	
10. Mehnat resurslari va ulardan foydalanish.	
11. Aholining hududiy joylashuvi.	
12. Shahar aholi manzilgohlari.	
13. Qishloq aholi manzilgohlari.	
14. Aholi rivojlanishining qonuniyatlari, konsepsiyalari, ularni bashoratlash.	
15. Aholi siyosati va global demografik muammolar.	
IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar Mustaqil ta'limni baholash – bu talabalarining jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo'yilgan masalani o'rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarni tahlil qilib, hulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to'liq ochib beriladi. Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular: 1. Aholi sonining davriy o'zgarish xususiyatlari 2. Aholi va uni ro'yxatga olish jarayoni. 3. Aholining tabiiy ko'payish jarayoniga ta'sir etuvchi omillar 4. Aholining zamonaviy migratsion harakatlari. 6. Demografik portlash va demografik tanglik jarayonlari 7. Xalqaro migratsiya va uning sabab hamda oqibatlari. 8. O'zbekiston aholisining milliy va diniy tarkibi. 9. Etno-konfessional tarkibning shakllanish xususiyatlari. 10. O'zbekistonda mehnat resurslaridan foydalanish muammolari. 11. O'zbekistonda aholining hududiy joylashuvi. 12. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonining rivojlanishi. 13. O'zbek millati va tilining shakllanish xususiyatlari. 14. Dunyo dinlarining geografik tarqalishi. 15. Global demografik muammolar va ularni hal etish yo'llari. 16. Urbanizatsiya jarayonining rivojlangan davlatlarga xos xususiyatlari. 17. Urbanizatsiya jarayonining rivojlanayotgan davlatlarga xos xususiyatlari. 18. Aholi siyosati olib borishning o'ziga xos jihatlari. 19. O'zbekistonda aholi siyosatining asosiy yo'nalishlari.	

20. Ma'lum davlat aholisi va uning tarkibiy xususiyatlarini tahlil etuvchi referat tayyorlash.	
3.	V. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: - fanning rivojlanish tarixi, ob'ekti, predmeti, tadqiqot usullari, boshqa fanlar bilan aloqadorligi, dunyo aholisi soni va dinamikasini tahlil qilish, tabiiy va mexanik harakati va ularga ta'sir etuvchi omillar, tarkibiy jihatlarining shakllanish xususiyatlarini tahlil qilishda geografik xaritalardan foydalanish, statistik ko'rsatkichlar asosida diagramma, grafiklar chizish haqida <i>tasavvur va bilimga ega bo'lish</i>; - Dunyo aholisining soni, yillik o'sish darajasi, uning turli tarkibiy jihatlarining mintaqaviy tafovutlari, mehnat resurslari va ulardan foydalanish holati, hududiy joylashuvi va aholi manzilgohlari turlari, aholi siyosatini <i>ko'nikmalariga ega bo'lish</i>; - Dunyo mamlakatlari aholisi tabiiy va mexanik harakatining mintaqaviy tafovutini yuzaga kelish holatlari, tug'ilish va o'lim jarayonlarining umumiy koeffitsientlarini, migratsion sal'do, aholi zichligi, iqtisodiy faol aholi ko'rsatkichlarini hisoblashga, demografik bashorat va siyosat turlarini tahlil qilish <i>malakasiga ega bo'lishi kerak</i>.
4.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • amaliy topshiriqlar (karta bilan ishlash, geografik masalalarni hal qilish, grafik va diagrammalar chizish); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish; • "BBB", "Tarozi", "SWOT-tahlil", "Sinkveyn", "FSMU", o'yin, musobaqa, aylanma trenirovka, takroriy mashq, o'zgaruvchan mashq, qat'iy tartiblashgan mashqlar.
5.	VII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oralik nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.
6.	VIII. Asosiy adabiyotlar: 1 Z.N.Tojiyeva. Aholi geografiyasi. T.: "Innovatsion-Ziyo", 2020. 2. Bo'riyeva M, Tojiyeva Z., Zokirov S. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari. Toshkent.: 2011. 3. Z.N.Tojiyeva, F.A.Do'smanov. Demografiya. T.: "Инновацион"

	ривожланиш нашриёт-магбаа уйи”, 2020. 4. Qayumov A. va boshqalar. Aholi geografiyasi va demografiyasi. Toshkent.: 2011y. 5. Ромашова Т.В География населения с основами демографии (практиум). Томск. 2014. 100 с. 6. Soliyev A., Safarov I. «Iqtisodiy va siyosiy geografiya asoslari». O'quv qo'llanma Toshkent, Universitet, 2003. IX. Qo'shimcha adabiyotlar 7. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent, 2021. -458 b. 8. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш-юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. “Ўзбекистон”, 2017. 9. Абдурахмонов Қ.Х., Абдураманов Х.Х. Demografiya. T.: “Ношир”, 2011. 10. Vaxobov X. Geografiya. O'quv qo'llanma. T.: Uzingomsentr. 2002.
	X. Axborot manbalari 1. www.cspi.uz 2. www.lib.cspi.uz 3. www.ziyounet.uz 4. www.lex.uz 5. www.bilim.uz 6. www.gov.uz 7. www.connect.uz
7.	Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2023-yil “29” avgust dagi qarori bilan tasdiqlangan
8.	Fan/modul uchun ma'sul: O.U.Abdimurotov CHDPU, “Geografiya” kafedrası mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori,(PhD). F.A.Do'smanov – ChDPU “Umumkasbiy va ixtisoslik fanlari” kafedrası katta o'qituvchisi
9.	Taqritzchilar: Z.N.Tojiyeva – O'zMU “Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya” kafedrası muduri, geografiya fanlari doktori, professor J.A.Namozov - Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Geografiya” kafedrası dotsenti v.b.